

PAPER

# YUQORI MALAKALI BOKSCHILARDA GAVDA YORDAMIDA XIMOYALANISH TEXNIKASINING KINEMATIK MODELI

Irgashev Nodirjon Numanovich<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Mustaqil izlanuvchi

\*Nodirjon1@gmail.com

## Abstract

Mazkur maqolada yuqori malakali bokchilarining gavda yordamida ximoyalanish texnikasining kinematik xususiyatlari organib chiqilgan va ushbu harakatlar orqali sportchining texnik xatolari yuzasidan kerakli korsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Key words:** yaqori malakali bokschilar, texnika, kinematika, oyoq harakatlari, gavda egilishi, vertikal tebranish..

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-aprel "Boksnii yanada rivojlantirish shora-tadbirlari togrisidagi PQ-5099 qarori [1] yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtrish, yoshlar ortasida sog'om turmush tarzini targib qilish ushun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtiroy etishini taminlash borasida izshil shora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy sport turlarining rivojlanishida, xususan, boks sport turida himoya texnikalarining chuqur organishti sportchilarning musobaqadagi natijalarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Yuqori malakali bokschilarining jang davomida himoya harakatlarini togri, oz vaqtida va energetik jihatdan tejamkor tarzda bajarishi nafaqat zarbaldan himoyalanish, balki qarshi hujumni samarali tashkil etish imkonini beradi. Boksdan himoya texnikalarini turli xil bolib, ular orasida gavda yordamida bajariladigan harakatlar — yani, oldinga, orqaga, yon tomonga ogishlar, pastga egilishlar va shongish harakatlari — ozining tabiiyligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Ushbu harakatlarning kinematik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, sportchilarning texnik-taktik tayyorlarligini oshirishga xizmat qiladi [2,3].

Songgi yillarda sport tibbiyoti, biomekanika va raqamli texnologiyalar sohasidagi yutuqlar boksdan harakatlarni modellashtirish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, kinematik modellash orqali bokschining gavda harakatlarini matematik va grafik ko-

rinishda aks ettirish, ular orasidagi optimal variantlarni aniqlash, sportchining individual xususiyatlari mos mashgulot dasturlari ni tuzish imkonini beradi. Tadqiqotda yuqori malakali bokschilarining himoya harakatlari — ayniqsa, gavda yordamida bajariladigan himoya usullarining kinematik modeli yaratiladi hamda ularning biomekanik korsatkichlari asosida tahlil qilinadi [4,5].

Bu, oz navbatida, bokschilarining texnik mahoratini ilmiy asosda baholash va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur harakatlar inson gavdasining murakkab mushakskelet tizimi ishtiroyida amalga oshiriladi va ularning har biri oziga xos kinematik xususiyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, harakatlarni tahlil qilishda biomekanik modellashtirish va kinematik korsatkichlar (tezlik, burchak tezligi, traektoriya, ogirlik markazi holati va h.k.) ni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Songgi yillarda xorijiy mamlakatlarda sportchilarning harakatlarini organizhsda harakatni raqamli modellashtirish "Motion Capture texnologiyasi", yuqori tezlikdagi videotasvirlar, hamda analitik dasturlardan foy-dalanish keng rivojlanmoqda.

Afsuski, mazkur uslublar Ozbekiston sharoitida hali keng qol-lanilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot nafaqat amaliy, balki ilmiy-innovatsion ahamiyatga ham egadir [6,7,8]. Ushbu maqolada yuqori malakali bokschilarining gavda yordamida himoyalanish texnikasi tahlil qilinadi, ularning kinematik modeli yaratiladi va bu model asosida sportchi harakatlarining samaradorlik daramasi aniqlanadi. Tadqiqot natijalarini kelajakda sportchilar tayyorlarligi uchun individual yondashuvlarni ishlab chiqish, trening

Parameter	Ko'rsatkichlar	Value
Cadence [steps per minute]	Kadens [daqiqada qadamlar]	127.29 [ppm]
Flight time	Uchish vaqt (har bir harakatda)	0.48 [s]
Support time	Energiya vaqt	0.28 [s]
Step length	Qadam uzunligi	0.00 [mm]
Right flight time	Tog'riga siljish vaqt (har bir harakatda)	0.4874 [s]
Left flight time	Chapga siljish vaqt	0.0000 [s]
Right support time	Tog'ridan-to'g'ri enerjiga vaqt	8.7207 [s]
Left support time	Chapga siljishda energiya vaqt	0.0000 [s]

Figure 1. 1-jadval. Yuqori malakali bokschilarning gavda yordamida himoyalanish texnikasining kinematik xususiyatlari

samaradorligini oshirish va sport jarohatlarini oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

### Tadqiqot maqsadi

Yuqori malakali bokschilarning gavda yordamida ximoyalanish texnikasini takomillashtirish.

### Tadqiqot vazifikasi

Gavda yordamida ximoyalanish texnikasining kinematik hususiyatlari aniqlash; Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va kerakli tavsiyalar ishlab chiqish.

### Tadqiqot tashkil etish usullari

Tadqiqot natijalari va muxokamasi: Ushbu tadqiqot eksperimental va kuzatuv metodlariga asoslangan bolib, yuqori malakali bokschilarning gavda yordamida himoyalanish texnikasini kinematik modellashtirish orqali tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqot davomida biomekanik tahlil, videoanaliz, va kinematik parametrlarni hisoblash usullari qollanildi. Tadqiqotda kamida 5 yil profesional tajribaga ega bolgan, kamida respublika darajasidagi mu-sobaqalarda sovrindor bolgan 8 nafar erkak bokschi (yosh oraligi: 18–24 yosh) ishtirot etdi. Barcha ishtirotchilar sogligi yaxshi ekanligi, harakatlanish qobiliyati cheklanmaganligi va jarohatlarsiz holatda ekanligi boyicha oldindan tibbiy korikdan otkazilgan.

Har bir bokschidan quyidagi himoya harakatlari bajarilishi soraldi: 1. Chapga egilish 2. Ongga egilish 3. Chapga shongish 4. Ongga shongish; 5. Stulchik 6. Gavdani ortga tortish Harakatlar 120 fps tezlikda ishlaydigan yuqori aniqlikdagi videokamera yordamida qayd etildi. Bokschilarning gavda nuqtalari (boyin, yelka, bel, tizzalar va tovon) markerlar bilan belgilandi. Shuningdek, biomekanik analiz dasturi yordamida harakat trayektoriyasi va burchak tezliklari aniqlandi. Kinematik model yaratishda:

- Harakatlar 3D koordinata tizimida ifodalandi;
- Har bir harakat uchun x, y (va z) koordinatalar boyicha siljishlar va burchak ozgarishlari aniqlandi;
- Segmentlararo boglanishlar (masalan, yelka–bel, bel–tizza) harakat trayektoriyasida modellashtirildi;
- Raqamlı malumotlar asosida kinematik grafiklar, diagrammalar chizildi. Olingan natijalar statistik jihatdan organildi. Harakatlar ortasidagi ortacha burchak tezligi, maksimal egilish burchagi, harakat vaqtining davomiyligi, hamda muvozanatni saqlash darajasi tahlil qilindi. Har bir sportchining natijalari ozaro taqqoslandi.

Kadens (qadamlar chastotasi) – 127.29 ppm – Bu korsatkich bokschining harakat tezligi va motor ritmi haqida tasavvur beradi. 127.29 ppm (yani daqiqasiga 127 qadam) – bu juda faol harakatni bildiradi. Bu ritm yuqori intensivlikdagi himoya–hujum almashinuvida kuzatiladi. Yuqori kadens sportchining reaksiya tezligi, pozitsiya ozgarishi va kochish harakatlarining sillqligini tamin-

laydi.

Uchish vaqt – 0.48 s – Bokschi harakat vaqtida tanasining yer bilan aloqasi yoq bolgan (havoda bolgan) vaqtini bildiradi. 0.48 soniya – bu tez-tez qadam bosish, zarbadan ochish harakatlarida uchraydi. Bu korsatkich portlovchi harakatlar bilan bogliq bolib, kuchli yadro mushaklarining ishtirotkini bildiradi.

Energiyalash vaqt (yer bilan kontakt) – 0.28 sv – Sportchining harakat davomida yer bilan kontaktda bolgan vaqt. Bu qanchalik qisqa bolsa, bokschining reaktivligi va muvozanatini saqlash darajasi shunchalik yuqori boladi. 0.28 s – bu ortacha yoki tezkor harakatlar diapazoniga togri keladi. Bunday masofa vaqt sportchining ringda muvozanatda turishi va tosatdan harakatlanish qobiliyatini korsatadi.

Qadam uzunligi – 0.00 mm – Bu korsatkich harakat vaqtida sportchining real translatsion siljish qilmaganligini bildiradi. Bu holat asosan statik himoya harakatlarida (masalan, faqat gavda egilishi bilan himoyalanish) kuzatiladi. Yani bokschi joyidan siljimasdan, tananing yuqori qismini harakatlantirish orqali zarbadan ochgan. Bu yuqori darajadagi tana nazorati va koordinatsiyani talab qiladi.

Togri siljish vaqt – 0.4874 s – Oldinga yonalgan harakat vaqt. Bu harakatlar kopinchha hujunga otish, zarbadan chekinish yoki oldinga bosim korsatishda amalga oshiriladi. 0.4874 s – harakatning tezligi bilan bogliq ortacha qiymat bolib, bu bokschining oldinga harakatni nazorat bilan, lekin tez bajarishini korsatadi.

Chapga siljish vaqt – 0.0000 s – Bu qiymat nolga teng bolgani, bokschining chap tomonga harakat qilmaganligi yoki bu yonalishda harakat kuzatilmaganligini bildiradi. Bu asimmetriya sportchining ustun tomoni (masalan, ong qol yoki oyoq) bilan bogliq bolishi mumkin. Mashgulotlarda yonalishdagi simmetrik harakatlarni rivojlantirish zarur bolishi mumkin.

Togridan-togri energiyalash vaqt – 8.7207 s – Bu korsatkich sportchining togri yonalishda doimiy energiya sarflagan umumiyy vaqtini bildiradi. Bu juda uzoq vaqt hisoblanadi (deyarli 9 soniya). Bunday uzuksiz kuch sarfi pozitsion ustunlikni egallash yoki qarshi hujumni kutish paytida bolishi mumkin. Bu barqarorlik va chidamlilikka urgu beradi.

Chapga energiyalash vaqt – 0.0000 s – Chap tomonga energiya sarflanmagan yoki olchovda qayd etilmagan. Bu ham yuqorida aytilgan asimmetrik harakatlar bilan bogliq. Kop hollarda sportchilar ustun tomonga harakat qilishga moyil boladilar. Ammo ringda har ikki yonalishda harakatlana olish taktik moslashuvchanlikni oshiradi.

Otkazilgan tadqiqot natijalari yuqori malakali bokschilarda gavda yordamida amalga oshiriladigan himoyalanish texnikasining oziga xos kinematik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida olingan eksperimental malumotlar shuni kortsatdi, sportchilar tomonidan bajariladigan har bir harakat murakkab dinamik muvozanat, tezkor reaksiya va aniq koordinatsiyani talab etadi. Gavda yordamida himoyalanish usullari – “Chapga egilish, Ongga egilish, Chapga shongish, Ongga shongish, Stulchik, Gavdani ortga tortish” kabi texnikalar – zarbani qabul qilmasdan, tananing yuqori qismini egish, aylantirish yoki ong va chapga tezkor siljish orqali amalga oshiriladi. Bunday texnik harakatlarning muvaffaqiyatlari bajarilishi sportchining proprieptiv sezuvchanligi, mushak–ligament tizimining chaqqonligi va nevromuskulyar nazorati bilan bevosita bogliq. Aynan shu omillar sportchining kinematik samaradorligini aniqlovchi asosiy mezonlar sifatida baholanishi lozim.

### Xulosa

Tahsil natijalariga kora, kadens (qadamlar chastotasi) korsatkiching yuqori (127.29 ppm) bolishi bokschining harakatlardagi ritmiga, baland reaksiya tezligiga ega ekanini bildiradi. Qadam uzunligining 0.00 mm bolishi esa harakatlarning asosan statik pozitsiyalarda, yani joyidan siljimasdan bajarilganini korsatadi. Bu holat sport-

chingin zarbadan qochishda koproq tana egilishi (slip/duck) orqali himoyalanganini anglatadi.

Siljish vaqtleri va energiyalash davomiyliklari kinematik asimmetriya mavjudligini korsatdi, bu esa sportchining ustun tomon orqali harakat qilishga moyilligini bildiradi. Ayniqsa, chap tomonga siljish va energiyalash korsatkichlarining 0.0000 s bolishi texnik yondashuvda bирyoqlamalik mavjudligini korsatadi. Bu kabi harakatlar dinamik holatda barqarorlikni saqlash, zarbaldan samarali himoyalanish hamda hujumga qarshi tezkor harakatlar uchun asos bolib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, harakatlarning kinematik tahlili orqali sportchining himoyalanish texnikasida mavjud bolgan zaif jihatlarni aniqlash, ularni togrilash, individual mashgulot dasturlarini ishlab chiqish va sportchining biomekanik salohiyatini optimallashtirish mumkin. Bu esa nafaqat texnik-taktik tayyorgarlikni, balki sportchilarning jarohatlardan saqlanish darajasini ham oshiradi.

Shunday qilib, bokschilarda gavda yordamida himoyalanish texnikasi yuqori darajadagi harakat koordinatsiyasi, motor muvofiqligi va energetik samaradorlikka asoslangan. Ushbu harakatlarning kinematik modelini ishlab chiqish esa sportchilarning oziga xos texnik harakatlarini chuqur organish, ularni modelllashtirish va zamonaviy sport fanlariga asoslangan yondashuvlar orqali samarali boshqarish imkonini beradi.

## References

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-aprel “Boksnini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari togrisidagi PQ-5099 qarori togrisida.
2. Matkarimov, R., Tajibaev, S., Astuti, Y., Toshpulatov, K., Ismoilov, G., Mamajonov, D., Khojiev, S., Khasanov, A. (2024). Original Article: Enhancement of a software-hardware system for measuring volleyball players speed indicators and evaluating its effectiveness in a pedagogical context. ResearchGate. <https://doi.org/10.7752/jpes.2024.09244> Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/385683896>
3. Tajibaev, S., Ummatov, A., Ashurkova, S., Ismoilov, G., Khojiyev, S., Yokubova, O. (2024). Sensory equipment for monitoring and assessing the jumping ability of volleyball players. ResearchGate. <https://doi.org/10.37190/ABB-02412-2024-03>. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/382292357>
4. Tajibaev, S., Khojiyev, S. (2023). Xokkeychining asosi turish holati texnik harakatlari biomexanik tahlili korsatkichlari. Scientific Bulletin of NamSU: Nauchniy vestnik NamGU: ilmiy axborotnomasi - 2023-yil, 11-son, 1. ResearchGate. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/378213669>
5. Tajibaev, S., Omonov, D., Abdukhamedov, R., Rejamatov, A. (2024). Maximum angular speed of boxers direct punch to the head from the training position with the left hand. ResearchGate. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/386010314>
6. Tajibaev, S., Serebryakov, Y., Nabiev, Sh. (2024). Special performance indicators of highly skilled boxers by using mobile laboratory. ResearchGate. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/384901418>
7. Tajibaev, S., Axmedov, A. T., Shomirzaev, U., Buranov, I. K. (2024). The forward step in a boxer candidate for master of sports: A biomechanical analysis by 3D MA technology. ResearchGate. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/384898636>
8. Tajibaev, S., Shomirzayev, U. (2024). Features of kinematic indicators of leg movement (simple backstep) of men and women boxers. ResearchGate. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/382365197>